



Published on *Xalq Banki* (<http://xb.uz>)

YURIDIK SHAXS VA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKOR

Yangilangan sana: Tue, Iyul, 9, 2019

Yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor uchun bank korporativ karta



- Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari
- xom ashyo va materiallar (shu jumladan, qurilish materiallari), mebel, asbob-uskunalar sotib olish;
- kommunal to'lovlar (isitish, issiq suv, ichimlik suvi, oqova, elektr energiyasi, gaz va chiqindi uchun to'lovlar);
- ijara to'lovlari;
- soliq va boshqa majburiy to'lovlar;
- chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aholiga naqd pulga sotish maqsadida xarid qilingan tovarlar uchun;
- joriy faoliyati bilan bog'liq boshqa xarajatlarni to'lash mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkor VISA Classic conversion karta



- chet eldagi real va virtual do'konlarda xaridlar uchun kartadagi mablag' doirasida to'lovni amalga oshirish;
- plastik kartochkaning pinkodi 3 marta noto'g'ri terilsa avtomat blokka tushishi;
- internet orqali kartadagi mablag' doirasida xaridlarni amalga oshirish.

VISA Classic conversion – bu karta Visa logotipi bo'lgan barcha shoxobchalarda to'lovlarni qabul qilinadi. Undan ham elektron, ham mexanik to'lov terminallarida, bankomatlarda foydalanish mumkin, shuningdek bu kartochka Internet yoki telefon orqali to'lovlar qabul qilinadi.

Kartochka yordamida "bron qilish operatsiyalari"ni amalga oshirish mumkin, ya'ni mehmonxonada xona, aviachipta va boshqa xizmatlarni buyurtirish mumkin. Odatda, buning uchun o'z kartasi rekvizitlarini tovar yoki xizmat sotuvchisiga ma'lum qiladi, mijoz tovar olganidan yoki xizmatdan foydalanganidan so'ng sotuvchi uning kartochka hisobidan tegishli mablag'ni yechib oladi. Internet orqali xaridlar ham deyarli shunday amalga oshiriladi. Internet to'lovlari uchun kartochkada uchta raqamdan iborat maxsus servis kodi bo'lib, u kartaning orqa tomonida ko'rsatilgan. Ammo, ehtiyot bo'lish va o'z kartangiz rekvizitlari boshqa shaxslarning qo'lga tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Kartani ochish uchun quyidagilar talab qilinadi:

- Ariza;
- Bank bilan shartnoma tuzish.

Karta hisob raqamida 15 AQSH dollari miqdoridagi sug'urta badali saqlanadi.

To'lov terminali



- Hisob-kitoblarning xavfsizligini ta'minlash;
- Savdo aylanmasini oshirish;
- Naqd pulni bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish.

To'lov terminalini olish uchun quyidagilar talab qilinadi:

- Ariza;
- Bank bilan shartnoma tuzish.

E-POS (virtual) terminali

- Abonent to'lovi mavjud emas;
- Terminalni ta'mirlash uchun hech qanday xarajat yo'q;
- Istalgan vaqtda va istalgan joyda to'lovni qabul qilish qobiliyati;
- Internetga ulanmasdan (USSD-kod orqali) to'lov imkoniyati;
- Qog'ozsiz – kvitansiya (slip) elektron holda shakllanadi.

E-POS (virtual) terminalini olish uchun quyidagilar talab qilinadi:

- Ariza;
 - Bank bilan shartnoma tuzish.
-